

## O'ZBEK FORTEPIANO JAZZ IJROCHILIGIDA YANGI IZLANISHLAR: AN'ANA VA DAVOMIYLIK (PIANINOCHI SANJAR NAFIKOV MISOLIDA)

**Norpo'latova Shaxlo Norpo'lat qizi**

Botir Zokirov nomidagi Milliy estrada san'ati instituti

Estrada xonandaligi kafedrası jo'rnavozi.

**G'aniyeva Lola Muhsindjanovna**

Ilmiy rahbar.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17248345>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O'zbekistonlik jazz fortepiano ijrochisi Sanjar Nafikovning ijodiy uslubi tahlil qilinadi. S. Nafikovning jazni o'zbek folklori bilan uyg'unlashtirishga qaratilgan izlanishlari jahon jazz pianinohisi Chick Corea ijodi bilan taqqoslanadi. Natijada milliy va zamonaviy musiqiy an'analarning integratsiyasi asosida yangi uslubiy yo'nalishning shakllanishi ilmiy jihatdan asoslanadi.

**Kalit so'zlar:** jazz, pianinohi, o'zbek, folklor, improvizatsiya, musiqiy, an'ana, madaniyat, integratsiya, xususiyat, uslub, mahorat

**Аннотация.** В данной научной статье анализируются творческий стиль узбекского джазового пианиста Санджара Нафикова. Исследуются его поиски, направленные на синтез джаза с узбекским фольклором, проводится сравнительный анализ с творчеством джазового пианиста Чик Кориа. В результате научно обосновывается формирование нового направления и стиля на основе интеграции национальных и современных музыкальных традиций.

**Ключевые слова:** Санжар Нафиков, Чик Кориа, джазовое фортепиано, узбекский фольклор, импровизация, фьюжн, музыкальные традиции, культурная интеграция.

**Abstract.** This article analyzes the life and creative style of Uzbek jazz pianist Sanjar Nafikov. His efforts to integrate jazz with Uzbek folklore are compared with the work of jazz pianist Chick Corea. As a result, the formation of a new stylistic direction based on the integration of national and contemporary musical traditions is scientifically substantiated.

**Keywords:** Sanjar Nafikov, Chick Corea, jazz piano, Uzbek folklore, improvisation, musical traditions, cultural integration.

Fortepiano jazi musiqa tarixining muhim qismi hisoblanadi. Bu turdagi musiqa ijrochiligi ko'p qirrali bo'lib, dunyoning barcha mamlakatlaridagi musiqachilarining ijodi bilan tasvirlanadi. O'z cholg'usi sifatida fortepianoni tanlagan ijrochilar boy an'analarni meros qilib olib, ularni rivojlantirishadi yoki yangilik kiritib to'ldirishadi. Ushbu maqolada fortepiano jazining paydo bo'lishi va O'zbekistonga kirib kelishi, O'zbekistonda jazz fortepiano ijrochilik masalalari, Sanjar Nafikov hayoti va ijodi, shuningdek, jahon pianinohisi Chick Corea tajribasi bilan qiyosiy tahlili yoritiladi.

Biz bilamizki jazning paydo bo'lishi XIX asr oxiri XX asr boshlarida AQSHning janubiy shtatlarida boshlangan. Yangi Orleanda jazz paydo bo'lganda instrumental blyuz ham musiqa olamida rivojlangan. Bungacha blyuz vokal asar bo'lib, o'ziga xos tuzilish, forma, melodiya va ladga ega bo'lgan 12 taktili qo'shiq edi. Ammo Yangi Orlean musiqachilari blyuz vokalinig barcha xususiyatlari va ranglarini o'z cholg'ulariga o'tkazishga muvofiq bo'ldilar. Shu tariqa instrumental jazz ijrochiligi afroamerikalik musiqachilar tomonidan blyuz vokallariga taqlid asosida paydo bo'ldi. Fortepiano jazi ham bundan mustasno emas. U jazz ijrochiligining eng yaqqol sahifalaridan biri hisoblanadi.

Jaz rivojlanishining butun tarixi davomida pianistlar yo o'z cholg'usining hususiyatlaridan foydalangan, yoki bir-birlarini yengishga harakat qilgan. Shu kabi eksperimentlar natijasida dunyoning barcha mamlakalaridagi ijrochilar tomonidan namoyish etilgan o'ziga xos fortepiano jazi paydo bo'ldi. Forteplano jazining boshlanishi regtaym (regtim) deb ataladi.<sup>1</sup>

O'zbekistonda fortepiano ijrochiligi 1936-yilda Muxtor Ashrafiy nomidagi Toshkent davlat Konservatoriyasi, 1996 yili esa Estrada san'ati fakulteti, 2002-yildan O'zbekiston davlat Konservatoriyasida ya'ni Estrada cholg'u ijrochiligi kafedrasini tashkil etilgan.<sup>2</sup> "Kafedraning maqsadi – yuqori mahoratli jaz ijrochilarni tayyorlashdir"-deb ta'kidlaydi san'atshunoslik fanlari nomzodi G'aniyeva Lola.<sup>3</sup> Ushbu kafedrada improvizatsiya, aranjirovka, estrada cholg'usida ijrochilik, estrada cholg'ularida o'qitish uslubi yoki fanlari yosh jaz ijrochilarni dnyoqarashini, badiiy didini yuksaltiradi.<sup>4</sup>

Dastlabki yillarda fortepiano faqat klassik repertuarni o'qitish va ijro etish vositasi sifatida qaralgan bo'lsada, talabalar va ayrim pedagoglar zamonaviy g'arb musiqasiga, jumladan jazga ham qiziqish bildirib boshlagan. O'zbekistonda jaz musiqasiga qiziqish ayniqsa 1960-1979-yillarda oshdi. Moskva va boshqa ittifoq respublikalarda o'tkazilgan jaz festivallari Toshkent musiqachilariga ham kuchli ta'sir ko'rsatdi.<sup>5</sup> 1968-yilda Toshkentda birinchi jaz festivali bo'lib o'tdi. Bu festivalda "Turkiston yulduzi" ansambli chiqish qildi va ansamblda fortepianoda Sardor Muxtorov ijro qildi.<sup>6</sup> Bu festival fortepiano jazining rivojlanishida katta turtki bo'ldi. 1996-yilda tashkil etilgan Karim Zaripov nomidagi Respublika Estrada va Sirk kollejida, 1995-yilda tashkil etilgan R. Glier nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan musiqa maktabida va 2001-yilda tashkil etilgan V. Uspenskiy nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan maktab internatida ham Estrada chog'ulari aynan fortepiano yo'nalishining ochilishi jaz fortepiano san'atining rivojlanishida muhim bosqich bo'ldi desak mubolag'a bo'lmaydi.<sup>7</sup>

Bu dargohlarda o'quvchilar klassik ta'lim asosida jaz garmoniyasi, improvizatsiya va ansambl ijrosi sirlarini mukammal egallashdi. Bu maktablar o'zbek professional jaz ta'limining shakllanishida katta xizmat qildi. Bundan tashqari musiqa maktablarda ham Estrada cholg'ulari bo'limi ochildi. O'zbek jaz fortepiano maktabining shakllanishi bevosita fidoyi ustozlarning sa'y-harakatlari bilan bog'liq bo'lib, aynan Rumil Vildanov, Eduard Qalandarov, Enmark Salixov, Valeriy Saparov, Oybek Salixov, Vitaliy Safanov, Tamara Xalikova, Ra'no Atabekova, Jamilya Naimova, va Alina Alibekova kabi pedagoglar yurtimizda tanilgan ko'plab jaz pianinochilarini voyaga yetkazganlar. Aynan jaz fortepiano yo'nalishida o'ziga xos ijodiy yo'nalishga ega Sanjar Nafikov ham ustoz-shogird an'alarini davom ettirmoqda. Jaz ansambllarda jo'rnavezlik san'atini ham rivojlantirib.<sup>8</sup>

<sup>1</sup>Konep, V. "Рождение джаза" М: Советский композитор, 1984. 312 с.

<sup>2</sup> Ганиева Л. Вклад кафедры эстрадно-инструментального исполнительства в процесс формирования эстрадно-джазового музыканта. Тамбов: "ТОГБОУ" 427 в.

<sup>3</sup> Ганиева Л. Вклад кафедры эстрадно-инструментального исполнительства в процесс формирования эстрадно-джазового музыканта. 427 в.

<sup>4</sup> Ганиева Л. Вклад кафедры эстрадно-инструментального исполнительства в процесс формирования эстрадно-джазового музыканта. 428 в.

<sup>5</sup>O'zbek sovet entsiklopediyasi. T.9.1976.y.

<sup>6</sup> «Turkiston yulduzi» ansambli ishtirok etgan Toshkeny jaz festivali(1968).//O'zbekiston davlat konservatoriyasining arxiv materiallari.

<sup>7</sup>O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining madaniyat va san'at muassasalari faoliyatiga oid qarorlar (1990-2020-yillar).

<sup>8</sup> Ganiyeva Lola Development of sheet reading skills in a pop-jazz piano ensemble/ European Journal of Arts. №4. Vienna 2024. 32 p.

O'zbek musiqa sahnasida jaz san'ati hali keng ommalashmagan bo'lsada, istedodli musiqachilar bu yo'nalishda yangi izlanishlar olib bormoqda. Jaz musiqasini yangi zamonaviy davri-deb ataladi.<sup>9</sup> Shulardan biri Sanjar Nafikovdir. Sanjar Nafikov – O'zbekistonda tanilgan pianinochi va jaz ijrochisi. U 1990-yil Toshkentda tug'ulib, shu yerda ulg'aygan va butun hayotini musiqaga bag'ishlab kelmoqda. Uning ijodi va ijrochilik mahorati jaz san'atini yangi bosqichga olib chiqishga, uni o'zbek folklori bilan uyg'unlashtirishga qaratilgan. Suhbatimiz davomida S. Nafikov o'zining musiqaga ilk qadamlaridan tortib kelajakdagi rejalari haqida so'zlab berdi. Sanjar Nafikovning musiqaga muhabbati oilasidan boshlangan. Onasi fortepiano ijro etgan, otasi - musiqaga juda qiziqqan inson bo'lgan va bu yosh Sanjarning ham qiziqishini uyg'otgan. U 5 yoshidan musiqa maktabida fortepiano cholg'usini siru asrorini o'rgana boshlagan. 12 yoshida rok musiqasiga, 16 yoshidan esa jazga qiziq boshlagan.

20 yildan buyon u jaz bilan shug'ullanib va chuqur o'rganib, o'z ijodini shu yo'nalishga bag'ishlagan. S. Nafikovning fikricha: "Jaz ijrochisi bo'lish uchun qat'iy belgilangan "eng muhim ko'nikma" aniq yo'q. Har bir musiqachi o'z yo'lini o'zi tanlaydi. Shunga qaramay kuchli texnik va klassik baza katta ahamiyatga ega. Yoshlikda texnikani o'zlashtirish eng to'g'ri yo'ldir".<sup>10</sup> U shuningdek, jazni o'rganishda eng muhim jihatlardan biri-tinglash ekanligini aytadi.

Musiqachining eshituv tajribasi qancha keng bo'lsa, uning improvizatsiyasi ham shuncha boy bo'ladi. S.Nafikovning ta'kidlashicha, jazni faqat nazariya yoki notalar orqali o'rganib bo'lmaydi, chunki bu musiqaning 90 foizi tinglash va amaliyotga asoslanadi. U jazni o'rganayotganlarga improvizatsiyani o'rganishda eng yaxshi usul – buyuk jaz musiqachilariga taqlid qilish, ularning ijrosini tinglash, nota shakliga keltirish, yodlash va tahlil qilish ekanligini alohida ta'kidlaydi. "Ba'zan bir motiv, riff yoki qisqa kuy paydo bo'ladi. Uni fortepianoda turli yo'l bilan o'ynab ko'raman va undan yangi g'oya tug'iladi" deydi u.<sup>11</sup> Shuningdek, u ingliz tilidagi qo'llanmalarni eng ishonchli manba deb hisoblaydi. Mark Levinning "Jazz Piano Book" va "Jazz Theory Book", shuningdek, Jerry Bergonzining 7 jildan iborat kitoblari uning amaliyotida muhim o'rin tutadi.<sup>12</sup> Sanjar Nafikov "Jazirama" ansamblida o'z do'stlari bilan birgalikda o'zbek folklori va jazni uyg'unlashtirish ustida ishlab kelmoqda. Uning ijodiy izlanishlari asosan o'zbek xalq musiqasi bilan jazni sintez qilishga qaratilgan. U buni "integratsiya" emas, balki teng asosli sintez deb ataydi. Ya'ni folklore ham, jaz ham bir-birini boyituvchi teng huquqli element sifatida qaraladi. Bunda sharq musiqasining maqomlari, ritmik murakkabliklari jazning improvizatsion erkinligi bilan uyg'unlashadi. Agar musiqachining eshitish qobiliyati kuchli bo'lsa va u yaxshi ijrochilar bilan birlashsa, bu uyg'unlik tabiiy ravishda yuzaga keladi. Sanjar Nafikov o'zining asosiy maqsadini quyidagicha ta'riflaydi; "Men o'zbek sharqona musiqasi va jazni uyg'unlashtirishda davom etaman. Mening o'ziga xos uslubim – tinglovchilarni quvontirishga hizmat qiladi".<sup>13</sup>

Sanjar Nafikovning yondashuvi mashxur amerikalik pianinochi Chick Corea ijodiga yaqin jihatlarga ega. Chick Corea (1941-2021)—jaz tarixidagi buyuk innovator. U XX asrning eng yirik jaz pianinochilardan biri bo'lib, u fyujn jaz oqimini shakllantirishda muhim ro'l o'ynagan. U o'z faoliyatini 1960-yillarda salsa va bop yo'nalishlarida boshlagan. 1968-yilda mashxur trumpetist Miles Davis ansambliga qo'shilib, Bitches Brew kabi mashxur fusion albomlarida ishtirok etgan.

<sup>9</sup> Ганиева Л. Возрождение эстрадного искусства. Т.: "Олимп". 74 в.

<sup>10</sup> Muallifning ijrochi Nafikov Sanjar bilan muloqotdan axborot materiallari. T. 15.09. 2025

<sup>11</sup> S.Nafikov bilan muloqotdan axborot materiallari. T. 15.09. 2025

<sup>12</sup> Levine, M. "The Jazz Theory Book" 2<sup>nd</sup> Edition, Berklee Press, 1995.

<sup>13</sup> Muallifning S.Nafikov bilan muloqoti. T. 15.09. 2025

Aynan shu davr Corea ijodida burilish bo'ldi va u jaz- fyujn harakatining peshqadamlaridan biriga aylandi. Corea jazni rok, lotin, funk va klassik musiqalar bilan aralashtirib yangi oqim yaratdi. Uning improvizatsiyalari ritmik murakkabligi va melodik boyligi bilan ajralib turadi. U flamengo, Ispan musiqasi, Braziliya ritmlari va klassik musiqadan ilhom olgan. Eng mashhur kompozitsiyalari: "Spain", "La Fiesta", "500 Milas High", "Armando's Rhumba" va "Windows". U 23 marta Grammy mukofotini qo'lga kiritgan. Bu jaz musiqachilari orasida rekord ko'rsatkichlardan biri. Jaz ustasi sifatida AQSH va boshqa davlatlarda ko'plab faxriy unvonlar bilan taqdirlangan. U jaz tarixida nafaqat buyuk ijrochi va bastakor, balki yangi avlod musiqachilariga ilhom manbai sifatida qolmoqda. Uning ijodi bugungi kungacha jaz pianistlari uchun o'quv qo'llanma vazifasini bajaradi.

S.Nafikov yosh musiqachilar uchun klassik asos zarurligini ta'kidlaydi, bu jihat C. Corea faoliyatida ham yaqqol ko'rinadi. C.Corea ham klassik va tehnika bazani improvizatsiya bilan uyg'unlashtirgan. Nafikov o'zbek folklorini jaz bilan qo'shsa, C.Corea ispan va lotin Amerika musiqachilaridan ilhom olgan. Har ikkisi ham o'z madaniy ildizini global jaz sahnasiga olib chiqqan. S. Nafikov jazni asosan eshitish va taqlid qilish orqali o'rganishni yoqlasa, C.Corea ham improvizatsiyada ko'proq tinglash va sahnadagi tajribani asosiy vosita deb bilgan. Nafikov jazni O'zbekistonda yangi yo'nalish sifatida rivojlantirayotgan bo'lsa, C.Corea uni butun dunyoga mashhur qildi. Ularning umumiy maqsadi milliylikni jaz bilan uyg'unlashtirib global auditoriyaga yetkazish. Demak, jazning universalligi shundaki, u turli madaniyatlarni o'ziga singdirib, yangicha badiiy shakllar yaratishga imkon beradi.

O'zbekistonda fortepiano jaziga bo'lgan ta'lab hozircha keng emas, biroq Sanjar Nafikov singari pianinotchilar faoliyati ushbu yo'nalishga ilmiy va ijodiy e'tiborning ortishiga hizmat qiladi. Jazning rivoji uchun nafaqat davlat siyosati, balki individual ijodkorlarning tashabbusi va jamoatchilikning qiziqishi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shunday qilib, Sanjar Nafikovning tajribasi ko'rsatadiki, mahalliy musiqachilar global jaz an'alaridan o'rnatib olib, ularni milliylik bilan boyitish orqali o'zbek jaz fortepiano maktabini yaratishi mumkin. Bu jarayon, o'z navbatida, O'zbekistonni Xalqaro fortepiano jaz xaritasida o'z o'rnini topishga olib keladi. Chick Corea misolida ko'rish mumkinki, individual musiqachi ijodi butun bir madaniy oqimni shakllantirishi mumkin. Nafikovning sa'y-harakatlari O'zbekistonda ham shunday jarayonlarning boshlanishiga zamin yaratmoqda.

Shuni ta'kidlash joizki, O'zbekistonda estrada va fortepiano ijrochiligi uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Ayniqsa, Botir Zokirov nomidagi Milliy estrada san'ati institutining tashkil etilishi bu borada yangi davrni boshlab berdi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Avvalo, mana shunday dargoh bilan sizlarni, butun san'atsevar yoshlarimizni tabriklayman.! Biz bu ishlarni nima uchun qilyapmiz? San'atimizning buyuk merosini, yoshlarimizning nimalarga qodirligini dunyoga tarannum etish uchun".<sup>14</sup>Mazkur institut nafaqat jaz va estrada ijodkorlarini tayyorlashda, balki yosh avlodni milliy meros va zamonaviy san'at uyg'unligi ruhida tarbiyalashda ham muhim maskanga aylanmoqda.<sup>15</sup>Shu bois, Sanjar Nafikov kabi iste'dodli pianinotchilarning izlanishlari o'zbek estrada va jazz fortepiano san'ati istiqbolida alohida o'rin tutadi.

<sup>14</sup> Mirziyoyev SH.M. "Avvalo, mana shunday dargoh bilan sizlarni, butun san'atsevar yoshlarimizni tabriklayman..." – Prezidentning nutqidan. president.uz (<https://president.uz/oz/lists/view/7237>)

<sup>15</sup> Mirziyoyev SH.M. "Avvalo, mana shunday dargoh bilan sizlarni, butun san'atsevar yoshlarimizni tabriklayman..." – Prezidentning nutqidan. president.uz (<https://president.uz/oz/lists/view/7237>)

Kelgusida ushbu yo‘nalishda yanada keng imkoniyatlar ochilishi kutilmoqda. Zaripov nomidagi Estrada va sirk kolleji, R. Gliyer va V. Uspenskiy nomidagi maxsus musiqa maktablari, Botir Zokirov nomidagi Milliy estrada san’ati instituti hamda musiqa maktablari yosh ijodkorlar uchun mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qilmoqda.

Kelajakda:

- estrada va jaz fortepiano bo‘yicha yangi o‘quv dasturlari ishlab chiqiladi;
- Xalqaro hamkorlik asosida ustoz-shogird va mahorat darslari tashkil etiladi;
- yosh pianinotchilarni xorijiy tanlov va festivallarga tayyorlash orqali ularni dunyo sahnasiga olib chiqish imkoniyati kengayadi.

Sanjar Nafikov kabi iste’dodlarning o‘zbek folklori va jazni sintez qilishga qaratilgan ijodiy tajribalari bu yo‘nalishning istiqbolini yorqin namoyon etmoqda. Natijada, o‘zbek estrada va jaz fortepiano maktabi Xalqaro miqyosda ham tan olinishi va O‘zbekistonning musiqiy brendlaridan biriga aylanishi kutilmoqda.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Mirziyoyev SH.M. “Avvalo, mana shunday dargoh bilan sizlarni, butun san’atsevar yoshlarimizni tabriklayman...” – Prezidentning nutqidan. [president.uz \(https://president.uz/oz/lists/view/7237\)](https://president.uz/oz/lists/view/7237)
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining madaniyat va san’at muassasalari faoliyatiga oid qarorlar (1990-2020-yillar).
3. Ganiyeva Lola Development of sheet reading skills in a pop-jazz piano ensemble/ European Journal of Arts. №4. Vienna 2024. 32- 36 p.
4. Ганиева Возрождение эстрадно-джазового искусства. Т. : «Олимп» с.74-78.
5. Ганиева Л. Вклад кафедры эстрадно-инструментального исполнительства в процесс формирования эстрадно-джазового музыканта.// Материалы XII Международной науно-практической конференции. Тамбов: ТОГБОУ.( Тамбовский Государственный педагогический институт имени С. Рахманинова). С. 426-434
6. Turkiston yulduzi» ansambli ishtirok etgan Toshkeny jaz festivali(1968).//O‘zbekiston davlat konservatoriyasining arxiv materiallari.
7. Konen. V. “Рождение джаза” М: Совтncrbq rjv композитор, 1984. 312 с.
8. Levine, M. “The Jazz Theory Book”2<sup>nd</sup> Edition, Berklee Press, 1995.